O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

13.00.01 – “PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA (PhD) KIRISH IMTIHONI DASTURI

Andijon – 2026

KIRISH

Ushbu dastur 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchi talabgorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlari talablari asosida tuzilgan.

Dasturda bakalavriatning 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (tillar), 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar), 60110100 – Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi, 60110200 – maktabgacha ta’lim yo‘nalishi va 70110201– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) magistratura mutaxassisligi o‘quv rejalarining mutaxassislik fanlari blokida qayd etilgan fanlarning o‘quv dasturlari asosida talabgorlar e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan talablar berilgan. Shuningdek, ushbu fanlar doirasida asosiy tushunchalar, atamalar va fanning asosiy mazmunini jamlagan mavzular tartiblangan. Xususan, fanlar doirasida o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi mutaxassisligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’limini o‘qitishning fundamental muammolariga va tipologik tadqiqotlari zamonaviy yo‘nalishlarining dolzarb masalalariga qaratilgan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzular o‘rin olgan. Shuningdek, mustaqil O‘zbekistonning chet mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarining tez sur’atda rivojlanib va mustahkamlanib borishi chet tillarini puxta o‘qish va o‘rgatishni taqozo etmoqda. Chet tillarini puxta egallash zamonaviy ilm-fan, yutuqlaridan ta’lim texnologiyalaridan xabardor bo‘lish va zamon talabiga javob beradigan malakali mutaxassislar tayyorlashi nazarda tutadi.

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 696-son hamda 2021-yil 24-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 606-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqildi.

13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchilar xorijiy tillarni o‘qitish

metodikasining o‘ziga xos jihatlari haqidagi bilimlar bilan tanishadilar va talabgorlarning bilim darajasini sinovdan o‘tkazish uchun asos sifatida olingan fanlar, ular mazmuni, umumiy savolnoma hamda baholash mezonlarini taqdim etishni ko‘zda tutadi.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

- Talabgorlar “Umumiy pedagogika” fanining maqsadi, vazifalari, fan sifatida shakllanishidagi asosiy bosqichlarni bilishligi;
- innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, bevosita ta’lim jarayonida innovatsion talablarni joriy etish mazmuni to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;
- pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik konsepsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini, pedagogik fikrlar tarixi va taraqqiyotini bilishi;
- pedagogikaning konseptual asoslarini, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, ta’lim jarayonida chet til o‘qitish metodikasi fanini unga asos bo‘lgan metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi, tilshunoslik va psixologiya fanlari bilan munosabatiga oid qonuniyatlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi;
- pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratni ta’lim jarayonida amalga oshirish, pedagogik faoliyatni rejalashtirishda chet til darsini an’anaviy va yangi pedagogik texnologiyalardan to‘laqonli foydalangan holda olib borishi;
- pedagogik diagnostika va korreksiya metodlari tasnifi, o‘quvchi shaxsi rivojini tashxis etish va korreksiyalash masalalarini o‘z ichiga olgan o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning zamonaviy texnik vositalari bilan ishlay olishi;
- ta’limni boshqarishning ilmiy asoslarini bilishi, ta’limda ish hujjatlarini yuritish, yangi ilmiy adabiyotlardan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) qabul imtihonini o‘tkazishda qo‘llanishi ko‘zda tutilgan nazorat savollari:

1. Innovatsion jarayonlar rivojining umumiy tendensiyalari.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son. Ta’limda ilmiylik, sistemalilik va izchillik tamoyillari.
3. “Ta’lim tizimining modernizatsiyasi” deganda nimani tushunasiz?.
4. Chet til o‘qitish fanining dasturiy talablari.

5. Kommunikativ kompetensiyaning komponentlari.
6. Dars va uning xususiyatlari: (turlari, bosqichlari). Darsdan va sinfdan tashqari fan ta’limining maqsadlari, tashkil qilish yo‘llari.
7. Kasbiy kompetentlik nima? Ijodiy tajriba faoliyati.
8. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Individual yondoshish psixologiyasi.
9. Ta’limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish.
10. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va qoidalari.
11. Chet til o‘qitish metodikasi fanining turlari, tasnifi, maqsadi, vazifalari.
12. Chet tilda tinglab tushunishga o‘rgatuvchi zamonaviy metodlar.
13. Chet tilda gapirishga o‘rgatuvchi metodlar tahlili.
14. Ta’lim jarayoni qonuniyatlari va qoidalari. Ta’limni tashkil etish shakllari.
15. Pedagogik mahorat nima?
16. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.
17. “Pedagogik refleksiya” deganda nimani tushunasiz?.
18. Novatsiya va novator.
19. Pedagogik muloqot uslublari.
20. Individual rivojlanish dasturi nima?.
21. Chet til o‘qitishning mazmuni va uning komponentlari.
22. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
23. Pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifasi, tashkil qilish yo‘llari.
24. Ta’limda nazoratning maqsadi va vazifalari.
25. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari.
26. Pedagogik fikrlarning ilk manbalari.
27. Xalq pedagogikasi.
28. Mustaqil O‘zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanish tarixi.
29. Chet tilda talaffuzga o‘rgatuvchi metodlar va usullar.
30. O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
31. Jahonda eng qadimgi davrlarda pedagogik g‘oyalar.
32. Zamonaviy jahon ta’limi muhiti.
33. XXI asr jahon ta’limi tizimidagi global tendensiyalar.
34. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.
35. Chet til o‘qitishda bosqichlar masalasi va bu haqdagi turli qarashlar.
36. Xalq pedagogikasi bilan ilmiy pedagogika tamoyillarining o‘zaro aloqasi.
37. Sharq Uyg‘onish davri qomusiy olimlarining didaktik g‘oyalari.
38. Jadid ma’rifatparvarlarining darsliklar yaratish konsepsiyasi.
39. Jadid ma’rifatparvarlarining ma’naviy-axloqiy qarashlari.
40. Chet til nutq faoliyati turlariga o‘rgatuvchi innovatsion metodlar.

41. XX asr jahon ta’limi tizimidagi ta’lim modellari.
42. Chet tillarni o‘qitishni bosqichlarga ajratish me’zonlari.
43. Ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodlari. Ta’limda texnologik yondashuv.
44. Ta’limda innovatsion yondashuv mohiyati va uning bosqichlari.
45. XXI asrda jahonda ta’lim-tarbiya muammolari.
46. Ta’limning induktiv va deduktiv metodlari.
47. Ta’limning ma’rifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari. Ta’lim jarayonining tuzilishi maqsadlari va natijalari.
48. Didaktik tamoyillarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish.
49. Til tajribasini hisobga olish va og‘zaki nutqning ilgarilashi tamoyillari.
50. Pedagogik jarayonlarni tadqiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari.
51. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari tavsifi va turlari.
52. Chet til o‘qitishda motivatsiya.
53. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi biologic va ijtimoiy omillar.
54. Bola shaxsi tarbiya obyekti va subyekti sifatida.
55. Chet til o‘qitishda til va nutq mashqlarini qo‘llashning ahamiyati.
56. Chet til o‘qitishda audiolingual, audiovizual metodlarni qo‘llash.
57. Chet til o‘qitish metodikasining rivojlanish bosqichlaridagi metodlar.
58. Tarbiya maqsadi.
59. Tarbiya vazifalari, mazmuni va bosqichlari.
60. Didaktikaning asosiy tushunchalari, mazmuni, maqsadi va vazifalari.
61. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi.
62. O‘qitishning an’anaviy va innovatsion shakllari.
63. Ta’limda uzviylik va uzluksizlikni amalga oshirish masalalari.
64. Bilimlarni o‘zlashtirish.
65. Ta’lim vositalari va ularning turlari.
66. Dars turlari va darsning tuzilishi.
67. Ta’lim muassasalarini boshqarish, boshqaruvni tushunish.
68. Pedagogik tizimdagi boshqaruv tamoyillari.
69. Tizimli va vaziyatli boshqaruv.
70. Tarbiya maqsadi.
71. O‘qitish va o‘qishnining ta;lim jarayonidagi o‘zaro aloqasi.
72. Ta’limda boshqaruv, boshqaruv qarorlari, rejalashtirish tamoyillari.
73. Nutq faoliyatiga, turlariga o‘rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish.
74. Ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanishi.
75. Ta’limda onglilik, faollik tamoyili va ko‘rgazmalilik tamoyillari.
76. Ta’limda nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi.
77. Ta’limda ko‘rgazmalilikdan foydalanishning linguopsixologik asoslari.

78. Nutqiy ko‘nikma va malakalar hosil qilish bosqichlari.
79. Ta’lim tamoyillari, ularga xos muhim xususiyatlar.
80. “Ta’lim usullari” tushunchasining mohiyati.
81. Ta’lim metodlarining turlari.
82. Ta’limning texnikaviy vositalari.
83. Ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim, innovatsion ta’lim, hamkorlik ta’limi, o‘yin texnologiyalari.
84. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish.
85. Chet tilda gapirishga o‘rgatishdagi lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklar tahlili.
87. Ta’lim menejmenti bohqaruvida mehnat taqsimoti.
88. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
89. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
90. Olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan usullar va mashqlar.
91. Ta’lim sifatini rejalashtirish va boshqarishning innovatsion xususiyatlari.
92. Boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhit omillari.
93. Ta’lim tashkilotining tashqi muhit va ijtimoiy tashkilotlar bilan munosabati.
94. O‘quv faoliyatining ommaviy, guruhli va individual shakllari.
95. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar.
96. Chet tilda o‘qishga o‘rgatuvchi mashqlar tahlili.
97. Innovatsion salohiyat tushunchasi.
98. “Kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?.
99. “Kompetentlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?.
100. Pedagogik ilmiy tadqiqotlar ishlarini himoyaga tayyorlash va ommalashtirish.

13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha og‘zaki suhbatni baholash mezoni

Mazkur ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga og‘zaki ravishda javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda **4 tadan** savol bo‘lib, mazkur savollar nomzodlarning bakalavriat, magistratura va mustaqil izlanuvchilikda o‘qigan fanlari hamda

tayyorlagan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan tuziladi va jami javoblar «0» baldan «100» ballgacha baholanadi.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollar uchun maksimal **15 balldan,** 4-savol uchun maksimal **55-ball** etib belgilangan.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **12-15 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **8-11 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **4-7 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-5 ballgacha** qo‘yiladi.

№	**Umumiy ball**	**Baho**	**Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi**	**Xususiy ball**
1.	12-15	A’lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	14-15 13-14 12-13
2.	8-11	Yaxshi	Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	10-11 9-10 8-9
3.	4-7	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan;	6-7 5-6

			Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	4-5
4.	0-4	Qoni-qarsiz	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan.	0-4

Variantdagi 4-savol yuzasidan berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **40-55 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **25-39 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **10-24 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-9 ballgacha** qo‘yiladi.

№	**Umumiy ball**	**Baho**	**Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi**	**Xususiy ball**
1.	40-55	A’lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	50-55 44-49 40-44
2.	25-39	Yaxshi	Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	35-39 29-34 25-29

3.	10-24	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	20-24 15-19 10-14
4.	0-9	Qoni-qarsiz	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan.	0-9

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. Toshkent., 2020-yil 23-sentyabr.
2. Jalolov J.J., Maxkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology-T.: 2015.
3. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi.- T.: 2012.
4. Ахмедова Л.Т., Нормуратова В.И. Teaching English practicum / Практикум по методике преподавания английского язика - Т.: 2011.
5. Xoshimov O‘., Yaqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi – T.: 2003.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 29 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 47 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 485 b.
9. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: 2009.
10. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English language methodology: Учебное пособие для вузов. 2-изд. –Москва. Дрофа, 2007.
11. Common European Framework of Reference for languages: Learning, Teaching, Assessment. The Council of Europe. –Strasbourg, 2005.
12. Rogers and Richards. Approaches and methods in Language Teaching. Cambridge University press.
13. Harmer Jeremy. The practice of English language Teaching. –Cambridge, 2007.
14. Mahkamova G.T.Alimov Sh.S., Innovative pedagogical Technologies in the English Language Teaching. –Tashkent, 2017.
15. Alimov Sh.S Innovative technologies of improving speech skill in English. –Toshkent, 2020.
16. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. T.: “BROK CLASS SERVIS”

nashriyoti. 2017-yil.
17. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. TDPU nashriyoti. T.: 2013.
18. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
19. Qodirova F. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. T.: "Tafakkur", 2019.
20. Po'latov Sh. Ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur", 2012.
21. Djabborova X.J. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: TDPU. 2002.
22. Mirzakarimova M., Teshaboyev A., Ishanova M. Umumiy pedagogika. Darslik.- Andijon.: Step by step print, 2023. 420 bet.
23. Musurmonova O. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. — T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020. 376-bet.
24. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik-T.: SANO-STANDART, 2017. 418 bet.
25. Ishanova M. Umumiy pedagogika (pedagogika tarixi qismi). O'quv qo'llanma.-Andijon:ALTAIM, 2022. 220 bet.
26. Mirzakarimova M. General pedagogy (Theory of pedagogy). O'quv qo'llanma. – Andijon: Step-by-step print, 2023. – 111 bet.
27. Westbrook J, Durrani N, Brown R, Orr D, Pryor J, Boddy J, Salvi F. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries. University of Sussex. UK. Cover image © Benjamin Zeitlyn of CIE. 2013. p 151.

Internet saytlari

1. www.lex.uz.
2. www.pedagog.uz
3. http://iteslj.org/
4. http://iteslj.org
5. http://iteslj.org
6. http://www.teachingenglish.org.
7. http://www.teachermentors.com
8. http://www.inspiringteachers.com
9. http://teachnet.org
10. http://www.alt-teachercert. org
11. http://www.tv5.org/
12. http://www.rfi.fr/
13. http://lefildubilingue. org/
14. http://www.cafepedagogique.net
15. http://vocabularyprofile.com
16. www.google.es
17. www.marco.ele
18. www.cervantes.es
19. www. edu. uz
20. www. eppi.ioe.ac.uk